

AXLOQ, HUQUQ VA EVTANAZIYA: O'ZBEKISTON VA DUNYO TAJRIBASI

Gulnoza Muxiddinova

gulnozamuxiddinova9@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs B-potok 1-guruhan talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada evtanaziya masalasining axloqiy, huquqiy va tibbiy jihatlari chuqur tahlil qilingan. Muallif evtanaziyaning kelib chiqishi, uning turli mamlakatlarda qanday qabul qilinishi, jamoat axloqi va huquqiy normalar bilan o'zaro munosabati bo'yicha keng ma'lumot beradi. O'zbekiston va boshqa davlatlarning qonunchiligidagi evtanaziya bo'yicha yondashuvlar taqqoslanadi, uning jamiyat axloqiga ta'siri va inson huquqlari nuqtai nazaridan qo'llash imkoniyatlari o'rganiladi. Maqola axloqiy, huquqiy va tibbiy qarashlardagi ziddiyatlarni ochib beradi, evtanaziya masalasining murakkabligi va dolzarbligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Evtanaziya, inson huquqlari, tibbiy etika, axloqiy normalar, huquqiy tartibga solish, hayot huquqi, o'z-o'zini boshqarish erkinligi, tibbiy qaror, jamiyat axloqi, diniy qarashlar, konstitutsiya, tibbiy kodeks, bemorning ixtiyori, ichki va tashqi etika, transplantatsiya, sog'liqni saqlash tizimi

«Evtanaziya» kelib chiqishi qadimgi yunoncha «eu» – yaxshi va «Thanatos» – o'lim so'zlaridan olingan bo'lib, ushbu atama ilk bor tarixchi Suyetonius tomonidan qo'llangan. U imperator Avgustning vafotini «o'z rafiqasi Liviyaning qo'lida tez va azob chekmasdan, o'zi orzu qilgan evtanaziyada jon berdi», deya ta'riflaydi. Tibbiy izohlarga ko'ra, agar bemor kuchli og'riqlardan azoblanayotgan bo'lsa, hamda qattiq shikastlanishi natijasida yashashdan umidi olmagan taqdirda yoxud ortiq fikrlash-o'zini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lmasa, sun'iy moslamalar bilan ushlab turilgan yoki hushiga qaytishiga ortiq umid qolmagan taqdirdagina eftanaziya qo'llanishi mumkin. Evtanaziya masalasida asosan ikki yondashuv mavjud. Birinchisi, hayot muqaddasdur, u insonning tabiiy va ajralmas huquqidir. Islom huquqi mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsan, insonga hayot Alloh tomonidan beriladi deyilgan. Lekin boshqa tomonidan qaraydigan bo'lsak, islomiy davlatlarda, shu jumladan, Saudiya Arabistoni davlatida ham o'lim jazosi mavjud. Evtanaziya natijasida koplab muammolar yuzaga kelib chiqadi. Masalan, islomda o'z joniga qasd qilganlarga janoza o'qilmaydi va bu musulmon aholining ruhiyatiga yomon ta'sir qiladi. Undan tashqari, evtanaziya yordamida ba'zi jinoyatchi ishchi guruhlari o'zlariga to'siqinlik qilayotgan odamdan qutilish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Shuningdek, transplantatsiya

maqsadida (organlar kerak bo'lib qolgan taqdirda) evtanaziya yordamida odamdan qutilishning qo'shimcha imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Ikkinchidan, insonning o'z-o'zini boshqarishi va qaror qabul qilish erkinligi asosiy inson huquqlaridandir. Ya'ni yashash huquqi uning shaxsiy huquqidir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasiga ko'ra "Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy dahlsizlik huquqiga egadir". Lekin, og'ir cassalik bilan og'riyotgan bemor bu darddan qutilish maqsadida evtanaziyani tanlash huquqiga egadir. Aynan evtanaziyani mamlakat qonun tizimiga kirib kelishining asosini, o'sha davlatning, jamiyatning, xalqning mintaliteti muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham ayrim mamlakatlar o'zlarining qonunchiligiga eftanaziyani qo'llashgan. Shular jumladan, Evtanaziyani tarixda ilk bor 2001 yilda Niderlandiya hukumati qonuniylashtirdi. Bir yildan so'ng esa Belgiyada "Belgium Euthanasia Act" qabul qilindi. Biroq Janubiy Koreyada bu masala hamon muammoli. Boisi agar bemor o'z hushida bo'lmasa va uni hayotiy moslamalardan uzib qo'yish qarorini shifokor qabul qilsa jinoyat deb qaraladi. Lekin bu qarorni yaqinlari bersa qay darajada adolatli bo'lishi katta savol ostida qolmoqda.

Evtanaziyasi masalasida axloqiy va huquqiy normalar orasida bir nechta ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Tibbiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, agar bemor og'ir kasallik tufayli o'z qarorlarini qabul qilishga qodir bo'lmasa, ya'ni ongsiz bo'lsa, evtanaziyasi axloqan noto'g'ri deb hisoblanishi mumkin. Chunki bemorning o'lim haqidagi qarori boshqa shaxslar tomonidan qabul qilingan bo'ladi, bu esa axloqiy jihatdan noto'g'ri hisoblanadi, chunki bemor o'z xohishiga ko'ra qaror qabul qilmaydi. Jeneva Deklaratsiyasi-zamonaviy "Gippokrat qasamyodi"ga monan har bir shifokor esa o'z vazifasiga kirishishidan avval «basharti kimdir mendan so'rasa ham, hech qachon o'limga sabab bo'ladigan yo'riqnomalar, dori, maslahat ham bermayman», deya qasamyod qabul qiladi. Lekin boshqa yondashuvlarga ko'ra, bemor ixtiyoriga rioya qilish eng muhimi, uning istaklarini bajarish sog'liqni saqlash xodimlarining burchidir. Ba'zi mamlakatlar axloqiy ziddiyatlarni hal qilmagan holda evtanaziyani qat'ian man etadi, boshqa joylarda esa maxsus qoidalar va shartlar asosida ruxsat etiladi. Bularning barchasi har bir davlatning madaniyati, diniy qarshlari, huquqiy tizimi bilan chambarchas bog'liq.

Evtanaziyani cheklash yoki taqiqlash orqali hayotni saqlash g'oyasi ilgari suriladi. Shu jumladan 1949-yilda qabul qilingan "Tibbiy etika xalqaro kodeksi"da ham aynan shu masala o'z aksini topgan. Agar evitanaziya qonuniylashtirilsa yoki ruxsat berilsa, jamoat axloqi jamiyatning umumiyligi qadriyatlariga, inson huquqlariga, va adolat tamoyillariga asoslanishi kerak. Shu bilan birga, evitanaziya haqidagi qarorlar faqat tibbiy va psixologik nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy hamda axloqiy jihatdan ham muhokama qilinishi lozim.

Ilk bor 2001-yilda Niderlandiya evtanaziya amaliyotini qonuniy jihatdan tan oldi, bu qaror orqasida insonning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi yotadi. Niderlandiyaning jamoat ahloqi turli xildagi diniy qarashlardan uzoqlashib, inson huquqlari va erkinliklari deb qarashga o’tganligi aks ettirildi. 2002 yil Belgiya ham buni qonuniy jihatdan tan oldi. Jamoatchilik fikrida evtanaziya axloqan to’g’ri deb baholandi. AQShning ba’zi shtatlarida “Law on Euthanasia and Assisted Suicide”- bemorlar uchun evtanaziya xizmatlaridan foydalanish shartlarini belgilovchi hujjat hisblanadi. 2009 yilda esa Janubiy Koreya miyasidan jarohat olgan o‘z qarindoshining texnik moslamalardan uzib tashlash to‘g’risidagi oilaning talabini ko‘rib chiqib, qonuniy ruxsat berishdi va «qadr-qimmatli o‘lish huquqi» deya qonuniy band kiritishdi. Shuningdek, dunyoning hech bir diniy qarashlari «o‘z xohishi bilan joniga qasd qilishni» qo‘llab-quvvatlamaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi ” deya belgilangan. Undan tashqari bosh qomusimizning 26-moddasida “Hech kim qynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas” ekanligi belgilangan. Mamlakatimiz qonunchiligidagi shu vaqtga qadar evtanaziya haqida biror band bo‘lmagan. Ammo bu turdagi o‘limga umumiy Jinoyat kodeksi bilan qotillik yoki suiqasd deb qaralgan. Milliy qonunchiligimiz uchun katta tibbiy moddalar to‘plami bo‘lmish – Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasi jamoatchilik muhokamasi uchun taqdim etildi. Ushbu yangi kodeks loyihasining 108-moddasi bilan O‘zbekiston Respublikasida evtanaziyaga butkul taqiq qo‘yildi: Evtanaziya davolash imkonni bo‘lmaydigan bemorning o‘limini tezlashtirish to‘g’risidagi iltimosini har qanday harakatlar yoki vositalar bilan qondirish, shu jumladan, giyohvand vositalarini yoki boshqa vositalarni kiritish, shuningdek, kasallikning noqulay oqibati bo‘lgan hollarda uning hayotini saqlab qolish uchun ko‘rilgan sun’iy choralarini to‘xtatishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, evtanaziya qonunlari jamoat axloqining va huquqiy tizimning muvofiqligi asosida ishlab chiqilishi kerak. Bunday qonunlar jamoatning umumiy qabul qilgan axloqiy normalariga mos bo‘lishi, shuningdek, inson huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishi zarur. Shu bilan birgalikda, yuridik mas’uliyatni ham aniq belgilab berishi kerak, chunki har qanday huquqiy qaror faqatadolat va huquqiy normalarga asoslanishi kerak. Misol sifatida ayatdigan bo‘lsak, Hindistonda evitanaziya masalasi juda murakkab, chunki diniy qarashlarida (hindizm, buddizm) hayotning muqaddasligi va reenkarnatsiya kontseptsiyasi mavjud bo‘lib, evitanaziya masalasini rad etishga sabab bo‘ladi. Biroq, hindistonda ba’zi hollarda, ya’ni og‘ir kasalliklar bilan kurashayotgan bemorlar uchun "pasiv evitanaziya" (tibbiy

yordamni to‘xtatish) amalga oshirilgan. Evitanaziya masalasida huquqiy qoidalar jamiyatning axloqiy e’tiqodlari, diniy qarashlari va madaniy qadriyatlari ta’sirida o‘zgarib boradi. Diniy jamiyatlar ko‘pincha hayotni muqaddas deb bilishadi va evitanaziyani rad etadilar, sekulyar va erkin jamiyatlarda esa inson huquqlari va individual erkinliklar ko‘proq e’tibor qaratiladi. Har bir jamiyat o‘z qadriyatlariga va tibbiy, yuridik nuqtai nazariga mos ravishda evitanaziya masalasini muhokama qiladi va qonunlashtiradi. Demak, A mamlakat evtanaziyani qonuniylashtirishda, o’sha mamlakatning huquqiy ongli, mintaliteti, axloqi, shu bilan birlgilikda jamiyatning qarashlariga e’tibor berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
2. “Belgium Euthanasia Act”-Belgiya
3. 1948-yilgi Jeneva Deklaratsiyasi-Gippokrat qasamyodi
4. 1949-yilda qabul qilingan Tibbiy etika xalqaro kodeksi
5. “Law on Euthanasia and Assisted Suicide”- AQSh
6. Davlat va huquq nazariyasi-Sh.A.Saydullayev-2018
7. Davlat va huquq nazariyasi-X.T.Odilqoriyev-2021

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” qonun

FOYDALANILGAN SAYTLAR

1. <https://www.lex.uz/>
2. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
3. <https://www.euronews.com/2023/11/02/has-belgium-become-a-haven-for-people-wanting-to-end-their-life>
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/shifokorlar-qasamyodi-haliham-amaldami>
5. <https://www.nhs.uk/conditions/euthanasia-and-assisted-suicide/>